



MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARI SHAHARSOZLIK
MUAMMOLARI VA ULARNI KELITIRIB CHIQUARUVCHI OMILLAR

Musayeva Zumrad Muxitdin qizi
(senior lecture of Tashkent University
of Architecture and Civil Engineering)
zmusayeva1993@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Toshkent shahrida maktabgacha ta'lim muassasalarini joylashtirish bilan bog'liq shaharsozlik va ekologik muammolar yoritilgan. Aholi sonining o'sishi, joy tanqisligi va ekologik me'yorlarga rioya qilinmasligi asosiy muammolar sifatida ko'rsatilgan. Ekodizayn, energiya samaradorligi va ko'kalamzorlashtirishga asoslangan yechimlar taklif etiladi.

Abstract. This article highlights the urban and ecological problems related to the placement of preschool institutions in Tashkent. Key issues include population growth, lack of space, and non-compliance with environmental standards. The paper proposes solutions based on eco-design, energy efficiency, and greening strategies.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, shaharsozlik, ekologik muammolar, ekodizayn, Toshkent, infratuzilma, xavfsizlik

Keywords: preschool education, urban planning, ecological problems, eco-design, Tashkent, infrastructure, safety

Kirish. Bugungi kunda shaharlar jadal rivojlanib borayotgan bir paytda, maktabgacha ta'lim muassasalarini to'g'ri joylashtirish muhim urbanistik masalaga aylangan. Aholi zichligi ortib borayotgan sharoitda mavjud muassasalarning yetishmasligi, ekologik va texnik me'yorlarga rioya etilmasligi, eski qurilishlar va ekologik yondashuvning yo'qligi MTM tizimining sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, Toshkent shahri bu borada dolzarb misollardan biridir. Ushbu maqolada mavjud muammolarni ilmiy tahlil qilish va ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Aososiy qism. Shahar muhiti sifatiga, ta'lim muassasalarining qulayligi va xavfsizligini ta'minlashga qo'yilayotgan talablarning ortib borishi, shuningdek, ularni loyihalash va joylashtirishda ekologik va iqtisodiy jihatlarni hisobga olish zarurati maktabgacha ta'lim muassasalari (MTM) bilan bog'liq muammolarni dolzarb masalaga aylantirmoqda. Shaharlarda rekonstruksiya jarayoniga e'tibor qaratilib, zamonaviy shaharsozlik tendensiyalari va ekodizayn usullaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekistonning yirik megapolisi bo'lgan Toshkent shahri bu muammoning yaqqol namunasi. Shaharning jadal rivojlanishi va aholi sonining ortishi maktabgacha ta'lim muassasalarini zamonaviy standartlar va ekologik talablarni hisobga olgan holda joylashtirish bo'yicha samarali yechimlarni ishlab chiqishni talab etmoqda.





Shaharsozlikda MTTning asosiy muammolari:

urbanizatsiya va infratuzilmaga yuklamaning ortishi. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, Toshkent shahri aholisi 3 million kishini tashkil etib, yillik o'sish darajasi taxminan 1,5-2 foizni tashkil etmoqda. Bu o'sish infratuzilmaga, jumladan, maktabgacha ta'lim muassasalariga (MTM) yuklama yaratmoqda, ayniqsa Sergeli, Yunusobod va Chilonzor kabi aholi zich joylashgan tumanlarda;

bolalar bog'chalaridagi o'rinlar taqchilligi. 2023-yilda Maktabgacha ta'lim vazirligi ma'lum qilishicha, Toshkent shahrida bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi taxminan 57 foizni tashkil etadi. Shu bois davlatimiz tomonidan maktabgacha ta'lim tizimiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Oxirgi yetti yilda bu tizimda qamrov darajasi 27 foizdan 74,6 foizga ko'tarildi. Kelgusi besh yilda buni 80 foizga yetkazish maqsad qilingan.⁹² Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, har yili O'zbekiston Respublikasida 700 mingdan ortiq bola tug'iladi, bu esa maktabgacha ta'lim tashkilotlariga tushadigan yukni oshiradi. Umuman, mamlakat bo'yicha 3 — 7 yoshdagi har 100 nafar bolaga maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 28,1 ta joy to'g'ri keladi.⁹³ Bu ko'rsatkich 2030-yilga rejalashtirilgan 80 foizlik maqsadli ko'rsatkichdan ancha past. Bu holat ta'lim muassasalarini tashkil etish va takomillashtirish zarurligini ko'rsatmoqda.

ekologik standartlarning past darajasi. Toshkent shahridagi ko'plab bog'cha va maktablarda ekologik me'yorlarga rioya etilmayapti. Masalan, ekologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'rtacha hududlarda havoning ifloslanish darajasi ruxsat etilgan me'yorlardan 15-25 foizga yuqori. Bu, ayniqsa, sanoat zonalar va magistral yo'llardan uzoqda joylashishi kerak bo'lgan maktabgacha ta'lim muassasalari (MTM) uchun dolzarbdir;

ekologik dizayn va zamonaviy texnologiyalarning yo'qligi. Toshkentda maktabgacha ta'lim muassasalarini loyihalashda ekodizayn, quyosh panellari, yomg'ir suvini yig'ish tizimlari va energiya tejankor texnologiyalar kabi innovatsion yondashuvlar kamdan kam qo'llaniladi.

mavjudlik va xavfsizlik muammolari. Eski turar-joy mavzellarida bolalar bog'chalari yo'q yoki yangi turar-joy massivlaridan ancha uzoqda joylashgan, bu esa ota-onalar uchun qiyinchilik tug'diradi. Masalan, Sergeli va Olmazor tumanlarida muassasalar yetishmasligi kuzatilib, ota-onalar bolalarini boshqa tumanlarga olib borishga majbur bo'lmoqda;

MTM hududlarini ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirishdagi kamchiliklar quyidagilarni tashkil etib, me'yorlariga ko'ra, MTM hududining kamida 20 foizi ko'kalamzorlashtirilishi lozim, biroq amalda bu ko'rsatkich ko'pincha 10 foizdan ham pastroq. Bu yozda hududlarning haddan tashqari qizib ketishiga, soya joylarning yo'qligiga va bolalar salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatishiga olib keladi;

⁹² O'zb.Res. Prezidentinig 04.09.2024 y Ta'lim yo'nalishlariga oid takliflar taqdimoti <https://president.uz/oz/lists/view/7524>

⁹³ O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, 2-bob. Maktabgacha ta'lim tizimining joriy holati va uni rivojlantirishdagi mavjud muammolar <https://lex.uz/docs/-4327235?ONDATE=10.05.2019%2000#-4328040>



eskirgan binolar. Toshkentdagi ko'plab bolalar bog'chalari 1970-80-yillarda bugungi kun energiya samaradorligi, xavfsizlik va ekologiya talablariga javob bermaydigan namunaviy loyihalar asosida qurilgan. 2022-yilning o'zida 120 ga yaqin muassasa rekonstruksiya qilindi, ammo bu barcha muammolarni hal qilish uchun yetarli emas;

Shunday qilib, Toshkent kabi shaharlarni qayta qurish jarayonida bolalar ta'lim muassasalarini joylashtirishda shaharsozlik va ekologik yondashuvlarni tadqiq etish hamda ishlab chiqish hozirgi va kelajak avlodlar uchun barqaror, sog'lom va qulay turmush sharoitlarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'rsatib o'tilgan muammolarni hal qilish ta'lim muhitining yuqori sifatini ta'minlash, bolalarning salomatligi va farovonligini yanada yaxshilash imkonini beradi.

Muammolarni keltirib chiqaruvchi omillar:

Iqtisodiy omillar: MTM infratuzilmasini rivojlantirish uchun cheklangan byudjet mablag'lari; Yuqori qurilish va ta'mirlash xarajatlari; Zamonaviy materiallar va texnologiyalarning yetishmasligi.

Ijtimoiy omillar: Aholi sonining o'sishi va maktabgacha ta'limga talabning ortishi.

Arxitektura va texnik omillar: MTM binolarini joylashtirish va qurishda qurilish me'yorlariga (ShNK va QMQ) to'liq amal qilinmasligi; Eskirgan qurilish texnologiyalari va materiallari; 94

Binolarni loyihalashda innovatsion yondashuvlarning kamligi. 95

Shunday qilib, Toshkent kabi shaharlarni qayta qurish jarayonida maktabgacha ta'lim muassasalarini joylashtirishda shaharsozlik va ekologik yondashuvlarni tadqiq etish hamda ishlab chiqish hozirgi va kelajak avlodlar uchun barqaror, sog'lom va qulay turmush sharoitlarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Muammolarni hal qilish ta'lim muhitining yuqori sifatini ta'minlash, bolalarning salomatligi va farovonligini yanada yaxshilash imkonini beradi.

Xulosa. Toshkent shahrida maktabgacha ta'lim muassasalarini shaharsozlik va ekologik talablarga javob beradigan tarzda rejalashtirish muhim zaruratga aylangan. Aholining o'sib borishi, ekologik xavfsizlik, ko'kalamzorlashtirish, energiya samaradorligi kabi jihatlar MTM tizimining barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi omillardir. Maqolada ko'tarilgan muammolarni hal qilish orqali bolalar uchun sog'lom va xavfsiz muhit yaratishga erishish mumkin.

⁹⁴ <https://kun.uz/news/2024/02/09/57-yildan-song-qayta-tirilgan-bogcha-toshkentdagi-muassasa-tamirdan-song-qanday-ozgardi>

⁹⁵ Юсупалиева, Д. К. Дошкольное образование в Узбекистане: тенденции и современное состояние / Д. К. Юсупалиева, С. С. Жумаев. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2021. — № 22 (364). — С. 492-495. — URL: <https://moluch.ru/archive/364/81473/>





Adabiyotlar

1. Adilov Z. K. Z.M. Musaeva Theme: Analysis of Experience in Design and Reconstruction of Educational Institutions in Different Foreign Countries. – 2023.
2. Otabekovna, N. D., Z. M. S. Kizi, and M. Z. M. Kizi. "Use of tree plants in the organization of Landscape design in the regions of the city of Termiz, Surkhondaryo region." Web of Scholars: Multidimensional Research Journal 1.6: 359-363.
3. Adilov Z. K. et al. Organizing healthy landscapes in densely populated urban areas //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – T. 403. – С. 06008.
4. Кудрявцева Светлана Петровна Профессор, заведующая кафедры «Архитектура и градостроительство» Астраханский государственный архитектурно-строительный университет, Астрахань, Россия
5. O'zb.Res. Prezidentinig 04.09.2024 y Ta'lim yo'nalishlariga oid takliflar taqdimoti <https://president.uz/oz/lists/view/7524>
6. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, 2-bob. Maktabgacha ta'lim tizimining joriy holati va uni rivojlantirishdagi mavjud muammolar <https://lex.uz/docs/-4327235?ONDATE=10.05.2019%2000#-4328040>
7. <https://kun.uz/news/2024/02/09/57-yildan-song-qayta-tirilgan-bogcha-toshkentdagi-muassasa-tamirdan-song-qanday-ozgardi>
8. Юсупалиева, Д. К. Дошкольное образование в Узбекистане: тенденции и современное состояние / Д. К. Юсупалиева, С. С. Жумаев. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2021. — № 22 (364). — С. 492-495. — URL: <https://moluch.ru/archive/364/81473/>